



PRAGMALINGVISTIKANING TILDAGI O'RNI VA RIVOJI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI)

Sayibova Zuxra Yunusovna

Alisher Navoiy Nomidagi O'zbek Tili VA Adabiyoti Universiteti O'qituvchisi

Annotatsiya: Tilshunoslikning yangi va dolzarb masalalarga boy bosqichlaridan biri Linguopragmatika yoki Pragmalingvistika bosqichi tilga kommunikativ yondashuv bilan ajralib turadi. Bu degani, til aloqa vositasi sifatida qabul qilinadi va tilning kommunikativ funktsiyasi uning asosiy funktsiyasi deb tan olingan. Aloqaviy tilshunoslik, foydalanishdagi til sifatida nutq faoliyati sifatida tillar bo'yicha harakatlarni o'rganadi. Pragmalingvistikaning tilshunosikdagi tutgan o'rni va rivojiga har bir til vakillari tilshunos olimlari kabi o'zbek tilshunoslarini ham sanab o'tishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, linguopragmatika, pragmalingvistika, semiotika, pragmatika, empirik tahlil, amaliyot, pragmatik, semantik, kontekst, matn.

Kirish. Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma'naviy turmushida ro'y beradigan barcha voqea hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Til ayni ma'noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki: tilni bevosita o'rganib, uni tahlil qilib tasniflaydigan fan bu Tilshunoslik fanidir.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik xam boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, "maxsuli" sifatida o'zining alohida o'rganish obyektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi. Qat'iy aytish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, "o'sish" davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga "guvoh bo'ldi", shakllandi. Aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi. [1]

Asosiy qism. Shu bilan birga Tilshunoslikni o'rganar ekanmiz uni bevosita turli xil bosqichlarga bo'lib, turlab o'rganamiz. Ana shunday Tilshunoslikning yangi va dolzarb masalalarga boy bosqichlaridan biri Linguopragmatika yoki Pragmalingvistika bosqichi tilga kommunikativ yondashuv bilan ajralib turadi. Bu degani, til aloqa vositasi sifatida qabul qilinadi va tilning kommunikativ funktsiyasi uning asosiy funktsiyasi deb tan olingan. Aloqaviy tilshunoslik, foydalanishdagi til sifatida nutq faoliyati sifatida tillar bo'yicha harakatlarni o'rganadi. Muloqot - bu tillar yordamida aloqa vositalari o'rtasida ma'lumot almashishni rejalashtiradigan murakkab jarayon.

Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa goyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko'rdi. Bunday tayyorgarlik, izlanishlar zoe ketmadi, o'tgan asrning oxiri tilshunoslik taraqqiyotida o'ziga xos yangi bosqich, yangi rivojlanish davri bo'ldi. Shu davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy goyalarni o'zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo'nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo'nalishlardan biri, albatta, pragmatik pragmatikadir. Pragmalingvistika, hech qanday gumonsiz "tetapoya"



davridan o'tdi, ushbu soha o'z tadqiq ob'ektini (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini asosan aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik goya ham aniq: bu - faoliyat iazariyasidir. Ammo pragmalingsvistika hamon "navqironlik" davrida. Navqironlik esa - istiqbolli rejalarga to'liqlikdir, hozircha hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan tap tortmaslikdir. Darhaqiqat, barkamollikka intilayotgan pragmatika fani lisonning inson, jamiyat xizmatida bo'lishidagi vazifasining qanday amalga oshirilishi borasida izlanishlarni davom ettirishga majbur. Bu izlanishlar lisoniy bilim sohasidagi ushbu yo'nalishning yangi nazariy goyalar bilan boyitilishini talab etadi. [2]

Endi bu bosqichning o'zini tahlil qiladigan bo'lsak, "pragmatika" so'zi yunoncha "amaliyot" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, Pragmalingsvistika bu tilni amalda (amaliyoti)da o'rganadigan sohadir. Bu fanning g'oyalari semiotika deb nomlangan fanning asoschilari amerikalik olimlar J. Pirs va J. Morrisning asarlaridan kelib chiqqan. Semiotika - bu belgilar va imo -ishora tizimlari haqidagi fan. Aynan J. Morris sintaktik (sintaksis), semantik va pragmatikani farqlagan. Sintaktika - bu belgilar va ulardan foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar. Dastlab olimlar diqqatini sintaktikaga (sintaksis morfologiyasi, matn tuzilishi), so'ngra og'zaki belgilar va ob'ekt, tushunchalar, atrofdagi olam hodisalari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq semantikaga qaratdilar. Pragmalingsvistika 60-70-yillarda paydo bo'lgan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan biri Charlz Sanders Pirs (1839-1914) edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy goyasi semiotik belgining (shu jumladan, lisoniy belgining ham) ma'nomazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch.Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat sub'ekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi.[3]

Ch.Pirsning talqinicha, belgining munosabat maydoni uch yo'nalishdan iborat:

- 1) belgi, aniqrogi - reprezentamen, biror narsaning o'rnini almashtiruvchi moddiy ko'rinishga ega bo'lgan vosita;
- 2) idrok etuvchining ongidan o'rin olgan va belgining tavsifini beruvchi vosita - interpretanta;
- 3) belgida aks topayotgan ob'ekt

[4] [5]. Ushbu munosabatlar maydonini kuyidagi shaklda tasvirlash mumkin:

Shakldan ko'rinib turibdiki, belgi uni idrok etuvchi shaxsning faoliyatini ta'minlaydi, unga ta'sir o'tkazuvchi tuzilmadir. Ta'sir o'tkazmaydigan belgining o'zi ham bo'lmaydi. Xuddi shunday ta'sirni Ch.Pirs interpretanta deb ataydi. Ch.Pirsning semiotic tizimini qanchalik "ilmiy va mantiqiy asosga ega emaslikda" [6] ayblashmasin, uning goyalari nafaqat falsafiy pragmatizm, balki undan 50 yillar keyin shakllangan lingvopragmatika uchun ham muhim nazariy asosdir. Ayniqsa, "interpretanta" tushunchasining kiritilishi muhimdir. Bu tushuncha semiotik jarayon (semiozis) ning harakatchan faoliyat jarayoni ekanligini ta'kidladi, chunki lisoniy belgining idroki ta'siridagi shaxs (tinglovchi)da turli his-tuygu tugiladi, ma'lum bir harakat istagi paydo bo'ladi yoki shunga majbur bo'ladi.

Bu fanning eng mashhur vakillari - G. Gris, J.Sirle, J. Ostin, T. van Deyk, G. Leech. Nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqqan J.Ostin va muloqot tamoyilini (xushmuomalalik, maksimalizm) ishlab chiqqan G.Grays katta hissa qo'shdi. Rus tilshunosligida Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, V.Z. Demyankov, E.S.Aznaurovani eslatib o'tish kerak.

Tilshunoslikning Pragmalingsvistika bosqichi quyidagi muammolarga bog'liq bo'lgan turli yondashuvlar va qarashlar bilan tavsiflanadi:



- Aloqa jarayonida lingvistik shaxsiyat;
- tilning amaldagi va kontekstdagi sifati;
- muloqotning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;
- og'zaki muloqotning talqini jihati;
- Til insonning amalga oshiradigan faoliyati vositasi sifatida.

Sh.Safarov pragmlingvistikaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, tadqiqotchilarning bu boradagi asosiy g'oyalarini quyidagicha tasniflaydi:

- ✓ kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- ✓ lison muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;
- ✓ lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bog'liq hodisadir.

Ma'lumki, muloqot muhiti, asosan, matnda o'zining bor imkoniyat va xususiyatlarini namoyon etadi. Shunga ko'ra lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish matn lingvistikasini chuqur o'rganishni talab etadi. Zero, so'zlovchining axborot uzatishdan maqsadi, tinglovchining axborotni qanday qabul qilganligini matnda yanada aniqroq bilishimiz mumkin. Bugungi kunda matnni tadqiq etish pragmlingvistika yo'nalishiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan yanada avj oldi. Qator tadqiqotlar matn qurilishi, unda o'z imkoniyatlarini topgan kategoriyalar, matnning kognitiv xususiyatlariga bag'ishlandi. Jumladan, S.Boymirzayevaning «Matn modalligi», «Matn mazmunida temporallik semantikasi» nomli monografiyasi, Sh.Turniyozovanning «Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, M.Yo'ldoshevning «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili

soslari» nomli o'quv qo'llanmasi o'zbek tilida matn tilshunosligi oldidagi qator muammolarning yechilishiga turtki bo'ldi.

Xulosa. Umumiy qilib olganda Pragmlingvistika faqat ingliz yoki o'zbek emas balki butun dunyo tillari zahirida yotib, u shaxslararo muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Ya'ni qaysi tilni olmaylik, ularni tahlil qilish jarayonida Pragmlingvistikaning o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati (havolalar):

1. Rasulov Ravshanxo'ja (2010) "Umumiy tilshunoslik" 9-bet
2. Safarov Shaxriyor (2008) "Pragmlingvistika" 6-7-betlar
3. Safarov Shaxriyor (2008) "Pragmlingvistika" 41-42-betlar
4. Susov Ivan Pavlovich (1990) "Semiotika i lingvisticheskaya pragmatika" 125-126-betlar
5. Suxachev (2003) "O semiotike Ch.S.Pirsa : Troystvenniy znak v universume reprezentatsiy" 50-53-betlar
6. Volkov Aleksandr Aleksandrovich (1966) "Yazik kak siztema znakov" 34-bet